
TOSHLOQ TUMANIDA “YOSHLAR DAFTARI”DA RO‘YHATDA TURUVCHI 58 NAFAR YOSHLARGA SUBSIDIYA ASOSIDA ASBOB-USKUNALAR HAMDA MEHNAT QUROLLARI TOPSHIRILDI.

Yoshlarning har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikka jalb qilish hamda munosib daromad olishi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, ayniqsa "Yoshlar daftari" ro‘yhatidagi yigit-qizlarning hayotda munosib o‘rin topishlariga ko‘maklashish muhim masala hisoblanadi.

Bugun tuman hokimligi hamda O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi tashabbusi bilan "Yoshlar daftari"da ro‘yhatda turuvchi yoshlarga o‘z-o‘zini band qilishi uchun subsidiya asosida 26 ta tikuv mashinalari, 4 ta kompyuter, 8 ta inkubator hamda boshqa asbob-uskunalar va mehnat qurollari topshirildi.

Yoshlarga subsidiya asosidagi barcha mehnat qurollarini tuman hokimi A.Djurabayev hamda sektor rahbarlari topshirdilar.

2022-06-23 19:43:38